



**KONSTITUSIYAVIY NAZORAT TIZIMI, O'ZBEKISTON VA JAHON
TAJRIBASI.**

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti "Xalqaro Huquq" fakulteti 6-
guruh talabasi*

Pardayev Orzumurodning

"Konstitutsiyaviy huquq" fanidan yozgan maqolasi.

Har qanday huquqiy demokratik davlatda konstitutsiya oliy huquqiy kuchga ega bo'lib barcha qonun va normative huquqiy hujjatlar unga zid bo'lmashligi shart. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 16-moddasida ham O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emas deya belgilab qo'yilgan. Shu sababli konstitutsiyaviy nazorat tizimi jamiyatda qonun ustivorligini taminlashda muhim vositadir. Konstitutsiyaviy nazorat bu qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish va taminlash tizimidir.

Qonun chiqaruvchi yoki ijro hokimiyatining qarorlari har doim ham adolatli bo'lavermaydi, ular arizachi yoki shikoyatchini qoniqtirmasligi mumkin. Bunday paytda fuqaroning huquq va erkinliklari buzilsa, qarorlar ustidan sudga arz qilish zarurati tug'iladi. Bahsli vaziyatni hal etish uchun sud jarayoni boshlanadi. Faqat sud hokimiyati adolat masalasini hal etib beradi. Xalqaro tajribada Konstitutsiyaviy sud yurisdiksiyasi o'zining ko'p yillik tarixiga ega. Manbaalarda 1803-yilda Merberining Medisonga qarshi ko'rilgan ishi konstitutsiyaviy yurisdiksiyaning, hozirgi zamon tushunchasidagi qonunlar ustidan konstitutsiyaviy nazoratning boshlanishi deb e'tirof etiladi. Agar Kongress tomonidan qabul qilinadigan qonunlar AQSH Konstitutsiyasiga zid bo'lsa, ijro etilmasligi mumkinligini o'shanda AQSH Oliy sudi



birinchi marta tan olgan edi. Hozirgi kunda ham ko'plab xorijiy rivojlangan demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy nazorat o'rnatilganini ko'ramiz. Masalan AQSHda konstitutsiyaviy nazoratni Oliy sud amalga oshiradi. U mutaqil sudya korpusi orqali qonunlarni bekor qilish vakolatiga ega.

Germaniyada Konstitutsiyaviy sud juda mustaqil bo'lib fuqarolar bevosita murojat qilish huquqiga ega. Bu sud ko'plab siyosiy huquqiy mojaralarda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat institutining paydo bo'lishi mustaqillikni ilk davrlaridan, ya'ni o'tgan asrning 90-yillaridan boshlanadi. Yuridik adabiyotlarda Konstitutsiyaviy nazorat komitetini tashkil etilishiga O'zbekistonda Konstitutsiyaviy mustaqillik yo'lida tashlangan qadam, deb ta'rif berilishi o'sha vaqtlarda Konstitutsiyaviy nazoratning o'rnatilishi nechog'liq muhim bo'lganligini tasavvur qilish imkonini beradi. Mustaqillikdan bir yil oldin Oliy Sovet "O'zbekiston SSR Konstitutsion nazorat komiteti raisining o'rinbosarini, komitet a'zolarini saylash haqida"gi qaror qabul qildi. Shu tariqa, bugun amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga asos solindi. Bugun faoliyat yuritayotgan mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudini haqli ravishda mustaqillik tengdoshi deb aysak mubolag'a bo'lmaydi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun dastlab 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. Shu vaqtda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan Konstitutsiyaviy sudning vakolati vaqtinchalik konstitutsiyaviy nazorat Qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Bugun faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi 1995 yilning 30 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunga muvofiq tashkil etilgan. 20 yildan ortiq vaqt davomida ushbu qonun Konstitutsiyaviy sud faoliyatini huquqiy asosi sifatida amalda bo'lib keldi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi butun jamiyatda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati samaradorligini oshirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Aynan shu zarurat 2017 yil 31 mayda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda Konstitutsiyaviy sud vakolati doirasi kengaytirilish bilan birga sudyani vakolat muddati, sudya lavozimi nomzodiga qo'yiladigan talablar, ularning vakolat muddatlari bilan bog'liq qator normalar joriy qilindi. Biroq Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari kun tartibidan tushmadi. Yangi tahrirda tayyorlangan Konstitutsiyaviy qonunning tayanch nuqtasi "Agar qonun fuqarolar va yuridik



shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan hamda sudda ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llanilgan bo'lsa, fuqarolar va yuridik shaxslar qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga haqli" degan norma bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Albatta, biz buni konstitutsiyaviy qonunning tayanch nuqtasi sifatida bejiz keltirmayapmiz. Chunki, avvallari fuqarolarga bunday huquq berilmagan edi. Ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan qonunlarni Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyatlari esa, Konstitutsiyaviy sudning uchta sudya tomonidan o'rganib chiqilib, lozim topilganda Konstitutsiyaviy sud muhokamasiga kiritilgan. Agar, ular buni lozim topmasa, murojaat muallifiga faqat tushuntirish berish bilan kifoyalangan. Ta'bir joiz bo'lsa, bunday tartib fuqarolarni o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqidan bilvosita bo'lsada ma'lum ma'noda mahrum qilgan. Endilikda bunday holatlarga qonunda chek qo'yildi.

Shu o'rnida aytish mumkin, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda - mamlakatda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun hayotimizning barcha jabhalarida konstitutsiyaviy nazoratni kuchayishiga, bu esa pirovard natijada inson huquq va erkinliklarini, uning sha'ni, qadr-qimmatini, mol-mulkingini daxlsizligini saqlash, fuqarolarning mehnat qilish, ta'lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish kabi eng asosiy huquqlarini to'la ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak konstitutsiyaviy nazorat- bu huquqiy tartibot va demokratiya garividir. O'zbekistonda bu tizim barpo etilgan va faol ishlamoqda. Biroq uni yanada takomillashtirish, sudya mustaqilligini oshirish, fuqarolarning murojat qilih huquqini kengaytirish orqali konstitutsiyaviy huquqning samaradorligi ortadi. Jahon tajribasidan foydalanish esa bu yo'nalishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risidagi qonun
3. Jo‘rayev M, Ergashev S. Konstitutsiyaviy huquq – TDYU nashriyoti 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi rasmiy veb-sayti:
www.ksu.uz

